

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SINTAKSIS VA QO'SHMA GAPLAR NAZARIYASI

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Madaminova Marhabo Oybek qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Farhodova Kumushoy Qahramon qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Masharipova Maftuna G'ayrat qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sintaksis va qo'shma gaplar nazariyasi ustida ish olib borgan olim va tadqiqotchilarning fikrlari hamda o'zbek tilshunosligida ham o'xshash va farqli jihatlarini o'rgangan olim-u olimalarning ishlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sintaksis, gap, so'z birikmasi, qo'shma gaplar.

В этой статье представлены взгляды ученых и исследователей, работающих над теорией синтаксиса и сложных предложений, а также работы ученых, изучавших сходства и различия в узбекской лингвистике.

Ключевые слова: синтаксис, предложение, фраза, сложное предложение.

Sintaksisning o'rganish tarixi qadimgi asrlarga borib taqaladi. Sintaksis ostida gap va uning qismlari haqida ta'limot tushuniladi. Bu nazariya antik davrning lisoniy an'alarini ifodalashdan kelib chiqqan. Sintaksis (grek tilidan sintaksis — birlashtirish, tuzilish) til tizimining bir sathi hisoblanib, so'z shakllaridan iborat bo'ladi. [5] Sintaksis masalasi antik davrdan o'rganilib kelinmoqda va hanuzgacha sintaksis masalalari dolzarb hisoblanadi. Sintaksis grammatika fanining bir bo'lagi sifatida ko'riladi. Ma'lumki, grammatika fani ikki qismdan, ya'ni morfologiya va sintaksis yo'nalishlaridan iborat. Sintaksis ta'rifiga ingliz, rus va o'zbek olimlari har tomonlama yondoshgan. Jumladan, rus olimi V. V. Vinogradov sintaksis so'zning so'z birikmasi va gap tarkibidagi birikish qoidalarni va usullarni hamda so'z birikmalarini, ularning tuzilishini, funktsiyasi, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan deb hisoblaydi. "Olimning ta'kidlashicha, sintaksisning xarakterli xususiyati shundaki, uning har bir o'rganish ob'yekti o'zidan yuqoriroq bo'lgan grammatik birlikning struktur elementi sifatida funktsiyalashadi: so'z va uning shakllari so'z va gapning, so'z birikmasi turli yoyiq gaplarning, gap doirasida esa, o'z navbatida, sodda gap qo'shma gapning struktur elementi sifatida xizmat qiladi". [3] Shunday qilib, sintaksisning o'rganish ob'yekti gapligini tasdiqlaydi. Hozirgi kunda, V.Vinogradovning nazariyasi va ta'limoti o'rta maktablarning darsligida o'z o'rnini topgan, ya'ni, maktab o'quvchilarini o'qitishda aynan ushbu olimning fikrlariga tayaniladi. O'zbek tili sintaksisi tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida dastlab Fitrat

tomonidan “nahv” atamasi ostida o’rganildi. Shundan so’ng H.Qayumiy va S.Dolimov ham ikki qismli “Grammatika” asarini yozib, ikkinchi qismini “nahv” deb nomlaganlar. [6] Gap nazariyasi ham turli tadqiqotchilar tomonidan keng o’rganilgan. Til o’z kommunikativ vazifasini sintaktik qurilma — gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha — fonetik, leksik, morfologik hodisa ana shu sintaktik qurilishga xizmat qiladi. Biroq bular sirasida leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki o’ziga xos. Zero, har qanday sintaktik hodisada so’z va morfologik ko’rsatkichni ko’ramiz. Shu boisdan sintaktik mohiyatni belgilashda leksik va morfologik omilga tayaniladi. Gap, aslida, so’zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so’zning bog’lanish qonuniyati, so’z birikmasi ham sintaksisda o’rganiladi. So’z birikmalarini o’rganish gap ta’limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas. Sintaksis so’zning har qanday birikuvini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvning lisoniy mohiyatini tekshiradi. Qaysidir yo’sindagi so’zning birikuvi bo’lgan qo’shma so’z (uchburchak, ertapishar, sotib olmoq), frazeologik birlik (ilonning yog’ini yalagan, po’konidan yel o’tmagan, ko’ngli bo’sh) sintaksisning tadqiq doirasidan chetda qoladi. Chunki ular erkin bog’lanishga ega emas. Sintaksis atamasi grammatika atamasining o’zi kabi ikki ma’noli: 1) tilning sintaktik qurilishi; 2) grammatikaning tarkibiy qismi. Atamani ana shu ikkinchi ma’nosida qo’llab, birinchi ma’no ifodasi uchun sintaktik qurilish atamasini ishlatamiz. Gap barcha tillarda grammatikaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Gap turlarinining o’rganilishiga, gap tadqiqi bilan bog’liq muammolar va turli tillarda gaplarning taqqoslash va qiyoslash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuning uchun turli oila va guruhlarga mansub tillardagi gaplarni va ularning turlarini qiyoslash va farqlash bugungi kun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda gaplar tishunoslikning turli yo’nalishlarida o’rganilib kelmoqda, jumladan, kontrastiv tilshunoslik, areal tilshunoslik, qiyosiy tipologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va pragmatik tilshunoslik. Albatta, tilshunoslikning har bir yo’nalishida gaplar va ularning muammolarini tahlil qilish yangicha yondashuvlarni va usullarni talab qiladi. Shuning uchun, gaplarning asosiy til birligi sifatida alohida o’rganish mavzusi diqqatga sazovordir. O’zbek tili sodda gap sintaksisning takomillashuvida B.O’rinboyevning “Hozirgi o’zbek tilida vokativ kategoriya”, N.Mahmudovning “O’zbek tilidagi sodda gaplarda mazmun va shakl assimetriyasi” monografiyalari ahamiyatli bo’ldi. O’zbek tili qo’shma gap sintaksisi shakllanishida akademik G.Abdurahmonov va M.Askarovlarning xizmati kattadir. O’zbek tili qo’shma gaplarning tadqiqiga bag’ishlangan “Hozirgi zamon o’zbek tilida ergashgan qo’shma gaplarning sostavi” asari bilan o’zbek tilida qo’shma gaplar alohida tadqiq qilinishni boshladilar. 1955 yilda F.Kamol “Qo’shma gaplarga doir masalalar” kitobini nashr etdi va unda qo’shma gaplarning maqomi, ularning tasnifi haqida dastlabki ma’lumot berdi. [7] O’zbek tilida qo’shma gaplar tadqiqiga bag’ishlangan

G.Abdurahmonovning ishini ko'rsatishimiz lozimdir. Jumladan, olim qo'shma gaplarni mazmun jihatdan quyidagi guruhlarga bo'lib chiqadi: aniqlovchi, ega, kesim, payt, o'rin, sabab, shart, maqsad, to'siqsiz, natija, ravish, qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplar. O'z navbatida, qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplar uchga bo'linadi: chog'ishtirish, o'xshatish, miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gaplar. G.Abdurahmonov qo'shma gaplarning 15 turini izohlaydi. [1] G.Abdurahmonov bog'lovchisiz qo'shma gaplar va komponentlarning biriktiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchisiz qo'shma gaplar va ularning komponentlarining sabab, natija, shart kabi mazmun munosabatlari, murakkab qo'shma gaplar va uning turlari bo'yicha masalalarni atroflicha talqin etdi. Professor G.Abdurahmonov qo'shma gaplar nazariyasi va ular bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganib, hattoki, xorij mutaxassislari e'tibor bermagan masalalarga e'tibor qaratdi. Misol tariqasida, uyushiq kesimli gaplar haqida shunday ta'rif beradi: "Sodda va qo'shma gaplarni farqlashda qiyinchilik tug'diradigan holat shundan iboratki, ba'zi bir sintaktik konstruktsiyalarning tarkibida faqat bir ega — sub'yekt bo'lishiga qaramay, qo'shma gap sanaladi, chunki bu xil konstruktsiyani tashkil etgan qismlarning ham Grammatik, ham semantik jihatdan o'ziga mustaqil ekanligi ko'rinib turadi; bu xil konstruktsiyani tashkil etgan qismlarning har biri ma'lum fikr tugalligini ifodalaydi, ularning predikativlik va modallik xususiyatlari bo'ladi". [2] Qo'shma gaplarning o'rganilishi L.Asqarovaning ishlarida qo'shma gaplarning o'rganilishi davom ettirildi. Olima qo'shma gaplarni bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz kabi turlarga ajratadi. G.Abdurahmonov tomonidan tavsiya berilgan qo'shma gaplarning turlarini qiyoslab va chog'ishtirib o'rgandi. Shuningek, A.Berdaliyev qo'shma gaplar sintaksisi sohasiga tizimli tilshunoslikning o'xshashlik (paradigmatika), sintaktik ziddiyatlar (oppozitsiya) kabi tushunchalarni olib kirdi. [8] Lekin A.Berdaliyevning ishida qo'shma gaplarning ajratilish va tasniflash masalalari qo'yilmagan. Mazkur masala G.Abdurahmonov, M.Asqarova va N.Turniyozovlarning ishlarida ko'rinadi. A.Nurmonov o'z ishlarida qo'shma gaplarni mazmun jihatdan o'rganib, gaplarning semantik tizimidagi propozitsiya aspekti, predikativ qurilmalar va kommunikativ aspekti kabi masalalarga o'z e'tiborini qaratdi. R.Sayfullayeva o'z tadqiqotlarida qo'shma gaplarni substantsial jihatdan talqin etgan. Hozirgi kunda qo'shma gaplar nazariyasi keng o'rganilmoqda. Jumladan, professor G.Hoshimov qo'shma gaplarni hajm jihatdan tadqiq qilish alohida ahamiyatga egaligini ifodalaydi. Olim qo'shma gaplarni quyidagi turlarga bo'lib chiqadi: politaksema o'z navbatida kollotaksema (collotaxeme), parataksema (parataxeme), gipotaksema (hypotaxeme), gipertaksema (hypertaxeme), supertaksema (supertaxeme), ultrotaksema (ultrataxeme), arxitaksema (architaxeme), sinkrotaksema (syncrotaxeme) larga bo'linadi. [4] Qo'shma gaplarning tadqiqi ustida ko'plab olim-u olimalar, professorlar izlanishlar olib borgan va olib

boryapti. Ko'rinib turibdiki, qo'shma gaplarni har tomonlama tadqiq etish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyolar:

1. Виноградов В. В. Основные вопросы синтаксиса предложения (на материале русского языка)//Исследования по русской грамматике. — М. 1975— С.154.
2. Хошимов. Г. М. Типология сложных предложений разносистемных языков.— Т. «Фан»
3. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. —Toshkent “Akademnashr”, 2012. — B.288
4. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. —Toshkent “Akademnashr”, II jild, 2012. — B.418
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. —Toshkent “Akademnashr”, II jild, 2012. — B.422
6. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning substantsional (zotiy) talqini. — Toshkent. “Fan”, 2007.— B.19.